

“TASDIQLAYMAN”

**“Adolat” milliy huquqiy
axborot markazi direktori**

F. Tojiyev

2022-yil “1” avgust

TANLASH HUJJATLARI

Fuqarolik-protsessual huquqi kitobini chop etish.

Buyurtmachi: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

1. Tanlashda ishtirok etuvchilar uchun umumiy qo'llanma

1. Umumiy tavsif.	<p>1.1. Mazkur tanlash hujjati O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rnlarda Qonun deb yuritiladi) hamda shunga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevraldag'i "Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3550-son qarori (keyingi o'rnlarda qaror deb yuritiladi) talablari asosida ishlab chiqilgan.</p> <p>1.2. Tanlash maqsadi: Fuqarolik-protsessual huquqi kitobini chop etish.</p> <p>1.3. Tanlashga qo'yilgan bir dona mahsulotni chop etish narxi: — 70 000 so'mni tashkil etadi.</p> <p>1.4. Buyurtmachi tomonidan tanlashga taklif etilgan narxdan tanlashda ishtirok etuvchining taklif etgan narxi oshib ketmasligi kerak.</p> <p>1.5. Xizmat ko'rsatishning texnik topshirig'i tanlash hujjatlarining texnik qismida aks ettirilgan.</p> <p>1.6. Tanlash taklifini rasmiylashtirish shakli — elektron tartibda amalga oshiriladi.</p>
2. Tanlash tashkilotchilari.	<p>2.1. Tanlashda "Buyurtmachi" sifatida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi ishtirok etadi.</p> <p>Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy. STIR: 201 453 166</p> <p>Bank rekvizitlari: "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi davlat muassasasi</p> <p>H/r: 2021 2000 3001 2567 6003</p> <p>"Mikrokreditbank" ATB Bosh ofisi.</p> <p>STIR 201453166 MFO:00433,</p> <p>OKED: 63110.</p> <p>Manzil: Toshkent sh. Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.</p> <p>Tel/faks: (71) 233-25-65</p> <p>E.pochta: info@adolatmarkazi.uz, https://xarid.uzex.uz/</p> <p>2.2. Tashkilotchining aloqa raqamlari:</p> <p>A.O'rino (90.176-54-42)</p> <p>2.3. Tanlash "Buyurtmachi" ko'rsatmasiga asosan tashkil etilgan tanlash komissiyasi tomonidan 6 (olti) kishidan iborat guruh a'zolari ishtirokida amalga oshiriladi.</p>
3. Tanlash ishtirokchilari.	<p>3.1. Mazkur hujjatning 4.2.-bandida nazarda tutilgan yuridik shaxslardan tashqari faoliyat turidan qat'iy nazar barcha turdag'i yuridik shaxslar, shuningdek, kichik biznes subyektlari mazkur tanlashda ishtirok etish huquqiga ega.</p>
4. Tanlashni o'tkazish tartibi.	<p>4.1. Tanlashda qatnashish uchun tanlash qatnashchisi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:</p> <p>a). Tanlash shartlari bilan tanishish maqsadida</p>

	<p>“Buyurtmachi”ning maxsus ma’lumotlar portaliga joylashtirilgan tanlash hujjatlarining elektron shaklini yuklab olishi;</p> <p>6). Mazkur tanlash hujjatlari talablariga asosan tanlash (konkurs) takliflarini taqdim etishi.</p> <p>4.2. Tanlashda quyidagi yuridik shaxslar ishtirok etishiga ruxsat berilmaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> a). Faoliyati tugatilishi arafasida turgan yuridik shaxslar; б). Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorligi mavjud yuridik shaxslar; в). Insofsiz ijrochilarining yagona reyestrida qayd etilgan ijrochilar; <p>4.3. Buyurtmachi, quyidagi holatlarga ko‘ra ishtirokchilarni tanlashda qatnashishdan chetlashtiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> a). Taraflar o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirsa, shu jumladan, pora berishni taklif qilsa, va’da bersa, tovlamachilik qilsa va boshqa korrupsiogen holatlar amalga oshirilsa. 4.4. Tanlashda ishtirok etish uchun talab qilinadigan hujjatlar o‘zbek va rus tillarida amalga oshiriladi. Agar boshqa davlat tilida taqdim etiladigan hujjatlar mavjud bo‘lsa, unda albatta ushbu hujjatlar o‘zbek va rus tillarida tarjima qilingan holda tanlashga taqdim etiladi. <p>4.5. Tanlash ishtirokchisi:</p> <ul style="list-style-type: none"> a). Taqdim etilgan hujjat va ma’lumotlar uchun to’liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi; б). Tanlashga bitta taklifni taqdim etish huquqiga ega; в). Tanlashda onlayn ravishda ishtirok etish huquqiga ega; <p>4.6. Tanlash 2 (ikki) bosqichda amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> a). Tanlash talabiga ko‘ra taklif etilgan narxni aniqlash va solishtirish; б). “Buyurtmachi” tomonidan tanlash ishtirokchilarining taqdim etgan hujjatlariga asosan talablarni sifatli, tez va muddatida bajarish, ishlataladigan mahsulotlar turi, shuningdek, e’lon shartlariga muvofiq bajarish muddati, to’lovni amalga oshirish shartlari bilan bog‘liq boshqa holatlar ham baholanadi.
5. Tanlashni o‘tkazish muddati.	5.1. Tanlash ishtirokchilari tomonidan hujjatlar taqdim etilganidan keyin, komissiya a’zolari ushbu hujjatlarni 10 kun muddat ichida o‘rganib chiqadi.
6. Komissiya tomonidan baholash mezoni va tartibi.	6.1. Baholash mezoni O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevraldagagi “Loyihaoaldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3550-son qaror hamda tegishli


	<p>normativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi.</p> <p>6.2. Tanlash ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflarni ko'rib chiqish va baholash mezoni takliflarni qabul qilish muddati tugaganidan keyin 10 kun muddat ichida amalga oshiriladi.</p> <p>6.3. Baholash mezoni jarayonida tanlash ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlar haqiqiy emasligi aniqlansa, komissiya ushbu ishtirokchini tanlashda qatnashishdan chetlashtiradi.</p> <p>6.4. Tanlash g'olib berilgan takliflar va baholash mezoniga asosan aniqlanadi.</p>
7. Shartnomani rasmiylashtirish tartibi.	<p>7.1. Tanlash natijasiga ko'ra tanlash g'olib (yuridik shaxs) bilan 2 (ikki) kun muddatda tegishli shartnomalar rasmiylashtiriladi.</p>

**Bosh maslahatchi
(komissiya kotibi)**

B. Qodirov

“TASDIQLAYMAN”

**“Adolat” milliy huquqiy
axborot markazi direktori**

 **F. Tojiyev**


2022-yil “1” august

**Fuqarolik-protsessual huquqi kitobini chop etish maqsadida tanlash
ishtirokchilari taqdim etgan hujjatlarni baholash mezoni bo‘yicha**

M A ’ L U M O T

T/r	Takliflarni baholash turi	Belgilangan ball.
1.	Buyurtmani bajarishning aniq muddati, tavsifnomalar va sifat ko‘rsatkichlari (avvalgi bajarilgan ishlar xususidagi buyurtmachi tashkilotlar tomonidan berilgan ma’lumotnomalar va xulosalar asosida)	- 40 ball
2.	Noshirlik (tipografiya, poligrafiya va h.k.) faoliyatida kamida 3 yillik tajribaga, mazkur xizmatlarni ko‘rsatish uchun tegishli litsenziya va o‘z texnologik bazasiga (bosmaxona stanoklari va boshqa qurilmalari) ega bo‘lishi	- 20 ball
3.	Ish kuchi (xodimlar). Eng ko‘p ishchi xodimlariga va sohasi bo‘yicha ko‘p yillik mehnat stoji hamda tajribaga ega bo‘lgan da’vo qiluvchi tashkilot yuqori ballar bilan baholanadi.	- 10 ball
4.	Moliyaviy ko‘rsatkichlar (taqdim etilgan buxgalteriya hisobotlariga ko‘ra)	- 20 ball
5.	Tanlash o‘tkazilishi haqidagi e’londa ko‘rsatilgan hamda talab etilgan barcha xarid qilish hujjatlarining komissiya tekshirishi uchun ishtirokchilar tomonidan xarid portaliga joylashtirilganligi	- 10 ball

Direktor (komissiya raisi)

 **F. Tojiyev**

Bo‘lim boshlig‘i

 **Y. Normurodov**

Bo‘lim boshlig‘i

 **D. Irgasheva**

Bo‘lim boshlig‘i

 **Q. Xujjatov**

Bosh maslahatchi

 **Y. Bo‘riyev**